

CAMTASIA STUDIO DASTURIDA PASKAL TILINING GRAFIK IMKONIYATLARI AKS ETTIRILGAN VIDEODARS YARATISH

S.P. Kutliyev¹, SH.B. Qushimmatova², G.R. Quvondiqova³

¹TATU Urganch filiali assistent o‘qituvchisi, q.sardor.86@gmail.com

²TATU Urganch filiali talabasi, qushimmatovashodiya@gmail.com

³TATU Urganch filiali talabasi, guljonoquvondiqova6@gmail.com

Abstract: This article discusses Camtasia Studio and its features. The graphic possibilities of Pascal language are shown, the creation of a video tutorial is explained with practical methods.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Camtasia Studio dasturi va uning imkoniyatlari muhokama qilinadi. Paskal tilining grafik imkoniyatlari aks ettiriladi, videodars yaratish amaliy usullar bilan tushuntiriladi.

Keywords: Camtasia Studio, Monitor, SWF, Camtasia Recorder, Clip Bin, Project.

Kalit so’zlar: Camtasia Studio, Monitor, SWF, Camtasia Recorder, Clip Bin, Proekt.

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish jarayoni zamонави, ko‘p tarmoqli, predmetga yo‘naltirilgan multimediali o‘quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi.

Foydalanuvchiga video va audio axborotlarni qabul qilish imkoniyatini yaratgan holda, alohida olingan ushbu imkoniyatlarning har biridan ham ko‘ra multedianing ma’lum ustunligi mavjud.

Multimedia vositalarini ta’limda qo‘llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta’limning gumanizatsiyalashuvini ta’minlash;
- o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish;

•ta’lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o‘zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta’lim olish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini o‘zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatları, olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llay olishi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, mehnatga bo‘lgan munosabati);

•ta’lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

•kompyuter vositalari va axborot elektron ta’lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta’lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta’limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;

•ta’lim oluvchiga faol bilim oluvchi sub’ekt sifatida qarash, uning qadrqimmatini tan olish;

•ta’lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;

•mustaqil o‘quv faoliyatini olib borish, bunda ta’lim oluvchi mustaqil o‘qib va rivojlanib boradi.

Camtasia Studio dasturi – bu kompyuter monitori ekranidagi tasvirlarni yozib olish imkonini beruvchi juda ham qulay kuchli dastur hisoblanadi. Ushbu dastur yordamida biz ekrandagi jarayonlari oson tasvirga olishimiz, veb kameralar orqali videoga olishimiz, PowerPoint taqdimotlarini, hamda audio yozuvlarni yaratishimiz mumkin. Dastur videoni tahrirlash imkonini beradi: turli effektlar berish, to'g'rakash, ravshanlik, ularning o'lchamlarini almashтирish, kerakli formatlarda saqlash va boshqalar.

Camtasia Studio – video darsliklar, taqdimotlar va boshqa shunga o'xshash kuzatuvchilarga namoyish etiladigan materiallar yaratish uchun mo'ljallangan.


Camtasia Studio dasturida monitor ekranidagilarni video tasvirga olishdan tashqari videoni tahrirlash imkoniyati ham mavjud. Camtasia Studio dasturidan foydalanib kompyuter monitorida yuz berayogan barcha jarayonlarni osonlik bilan yozib borish mumkin. Monitor ekranidagi butun sohani yoki uning alohida ajratilgan sohasini yozib olish mumkin, shundan so'ng video va audioning turli effektlarini berishimiz mumkin bo'ladi. Monitor ekranida kuzatilayotgan jarayonlarni yozib olish uchun yetarlicha yuqori unumdoorlikka ega bo'lgan kompyuter tanlansa ish unumdoorligi ortadi albatta.

Dasturning asosiy imkoniyatlari:

1. Monitor ekranidagi va veb-kameralar orqali kuzatilayotgan jarayonlarni, mikrofondagi ovozni sifatli yozib olish.
2. Videolavhalarga turli xil vizual effektlar berish.
3. Video yo'laklarni kesib olish, birlashtirish, o'chirish va qo'shish.
4. Audio yozuvlar qo'yish va tahrirlash.
5. Videoni bizga qulay bo'lgan formatlarda saqlash SWF, FLV, AVI, MOV, WMV, PPT, GIF, RM, CAMV.

Videodarsni yaratish bosqichlari quyidagilardan iborat:

1-bosqich. Dastur foydalanuvchi kompyuteriga o'rnatiladi (1-rasm):



1-rasm. “Camtasia Studio” dasturini o’rnatish.




2-rasm. “Camtasia Studio” dasturi ishga tushishi.

2-bosqich. Videodars tayyorlash uchun zarur ma’lumotlar yig’iladi:

Videodars tayyorlash uchun “Pascal tilining grafik imkoniyatlari” mavzusi bo’yicha ma’lumotlar to’plandi.

Mavzuga oid topshiriqlar pascal dasturida bajarib, “Camtasia Recorder” bo’limi orqali videoga yozib borildi. Quyidagi rasmda mavzuga oid topshiriqlarni pascal tilida yechish jaroyonidan namuna keltirilgan (3-rasm):




```
•Pascal grafika1 To'rtburchak.pas [Запущен]
uses graphABC;
begin
  SetWindowCaption ('Bu pascal ABC.Net grafikasi');
  SetWindowSize (600,400);
  SetWindowPos(ScreenWidth div 2 - Window.Width div 2, ScreenHeight div 2 - Window.Height div 2);
  SetBrushColor (clRed);
  SetPenColor (clBlue);
  SetPenWidth(5);
  //SetPenStyle (psDot);
  FillRectangle(100, 100, 400, 200);
end.
```

3-rasm. Paskal tilida yechilgan misoldan namuna.

3-bosqich. Ma'lumotlar tartib bilan ketma-ketlikda joylab loyihlashtirildi:

Ma'lumotlar yig'ilgach, birlashtirilib "Camtasia Studio" dasturiga ketma-ketlikda joylandi. Ma'lumotlar "Camtasia Studio" dasturining "Clip Bin" bo'limiga joylandi. Bu bo'lim dastur kutubxonasi vazifasini bajaradi.

Ma'lumotlar dasturga ketma-ketlikda joylandi. Buni dastur "Vaqt shkalasi" da ko'rish mumkin (4-rasm).




4-rasm. "Vaqt shkalasi" ko'rinishi

Ma'lumotlar tahrirlanadi. Proekt tayyor holatga keltiriladi.


4-bosqich. Yaratilgan projekt video ko'rinishida saqlanadi.

So'ngi bosqichda yaratilgan projekni saqlash jarayoni boshlanadi. "Camtasia Studio" dasturida projektni video ko'rinishia saqlash uchun "Produce and share" bo'limini tanlaymiz. Ushbu bo'limda projektni quyidagi ko'rinishilarida saqlash mumkin(5-rasm).




5-rasm. “Produce and share” oynasi

Video ko’rinishida saqlash uchun “Blog” yoki “HD” ko’rinishida saqlash maqsadga muofiq. Saqlash turi tanlangan dan so’ng keyingi oynaga video nomi va joylashishi kerak bo’lgan manzil ko’rsatildi (6-rasm) va saqlash jarayoni boshlandi (7-rasm).



6-rasm. Proektni saqlash oynasi



7-rasm. Proektni saqlash jarayoni

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, elektron tarzda yaratilgan darslar ya'ni videodarslardan xozirgi AKT rivojlangan davrda ta'limning deyarli barcha sohalarida foydalanish mumkin bo'ladi. Videodarslar mustaqil o'rganuvchilar uchun juda qo'l keladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

A. A. Abduqodirov, A. X. Pardayev. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. — T.: Fan, 2009.

1. Тангиров Х.Э.

Электронные средства обучения как компонент информатизации образования //Инновационные педагогические технологии. – 2014. – С. 335-337.

2. Тангиров Х.Э.,

Маматкулова У.Э. Использование электронных образовательных ресурсов в индивидуализации учебного процесса // «Инновационные подходы в современной науке» сб. ст. по материалам LX междунар. науч.-практ. конф. – № 24 (60). – М., Изд. «Интернаука», 2019. – С. 72-76 с.

3. Sardor Pulatovich Kutliyev, Oysuluv Matyaqubiva. Masofaviy ta'limda hamkorlikda o'qitish texnologisini qo'llash. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2021. 2021/5/26, 303-306

4. Sardor Pulatovich Kutliyev. Smart ta'lim texnologiyalarini xozirgi ta'lim jarayonlaridagi o'rni. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2022. 2022/4/30, 641-644

5. S Kutliyev, GR Dalerovich, TA'LIM JARAYONIDA HAYOTIY MISOLLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI KEYS-STADI TA'LIM METODI, Journal of new century innovations 27 (1), 113-115

6. S.K Pulatovich, PB Yusupovich, GR Dalerovich. O'RTA MAKTABLARDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA MOBIL ILOVALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI. Journal of new century innovations 28 (1), 178-180

7. <http://eor.it.ru/> Учебный портал по использованию ЭОР в образовательной деятельности